

**ILK O`SPIRINLIK DAVRIDA DUNYOQARASH SHAKLLANTIRISHINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI****Qazaqbaeva Gulzar Maxsetullaevna***Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonlikul tumani 20-sonli maktabning amaliyotchi
psixologi*

Annotatsiya Ushbu maqolada o`spirinlik davring psixologik xususiyatlari borasida, ilk o`spirinlar aql-idroq tafakkurining rivojlanishi, va kasb tanlash xaqida atroflicha ma`lumotlar berib o`tiladi.

**Kalit so`lar:** o`spirinlik, o`spirinlik davrida tafakkurning rivojlanishi, aql-zakovat, ahloqiy xislatlar jamoatchilik, o`spirinlik davrida kasb tanlash

KIRISH

Ilk o`spirining psixik rivojlanishini harakatga keltruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, ta`lim jamoasiga qo`yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik komolat o`rtasidagi ziddiyatlardir, turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar ahloqiy aqliy, estetik jihatdan tez o`sishi orqali bartaraf qilinadi. Ilk o`spirinlik ongidagi takchi omil yuqori sinf o`quvchilarning faoliyating xususiyati mohiyati va mazmunidagi tub burilishdir, o`spirin yoshidagi o`quvchilarning oldiga qo`ygan maqsadlardan biri bu ularning kelajakda qaysi kasbni egallashi kelajakda kim bo`lsam ekan degan savollar ularni qiynaydi, bu borada ularga kasb tanlashda,

Respublikamizda amalga oshirayotgan tub islohatlarning yaratuvchisi sifatida shakillanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishlari, shaxs sifatida kamol topishi, kasb xunar sirlarini o`rganishi va kundalik turmush yumishlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta`lim jarayoning asosiy vazifalardan biri sifatida bo`lib kelmoqda, kasbga yo`naltrish ijtimoiy balki psixologik muammo hamdir bugungi kunda kasb tanlash turli xil nazarlar asosida qarash mumkin bo`lgan jarayondir.

Endigina o`sib kelayotgan yosh o`spirin o`quvchilar kasbga qanday yondashadilar, bu muammo ko`pchilikni qiziqtiradilar turmush natijasidan ma`lumki ilk o`spirinlik yoshidagi o`g`il qizlar hayotga mustaqil qadam tashlash to`g`risida aniq asosli fikr yuritishga qiynaladilar shu sababli kasb tanlash to`g`risida oqilona to`g`ri yo`lni bilmay tavakkaliga ish tutadilar o`zlarining imkoniyatlarini hisobga olib to`g`ri yo`l tutishga qiynaladilar, natijada noxush kechinmalar umitsizlik, ijtimoiy sustlik holatlari vujudga keladilar yuqori sinf o`quvchilarning bazilari kasb tanlashda yoqqol ko`zga tashlanib turgan namunalarga taqlid qiladilar va o`zlarda biror bir maqsadga yo`nalganlik g`oyalari mavjud emas atrofda hatti harakatlarning xuddi shunday tasiri

ularda biror bir kasbni tanlab shu borada o`quv faoliyatini amalga oshirayotgan davrida o`zi tanlagan kasbga nisbatan ikkilanishlar umidsizliklarning kelib chiqishiga olib keladilar, shuning uchun ham yoshlarni kasb tanlashda pedagoglarning va ota onalarning qobilyati loyaqatiga qarab ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kasbga yo`naltirsa o`spirin yoshlar kelajakda o`z kasbini sevib o`z ustida ishlab yangi yangi bilimlarni egalab boradilar, bugungi fan texnika ijtimoiy taraqqiyot davrida yoshlarni jamiyatni barpo etishda ishtrokini taminlash bugungi kun maktabi har qachongidan ham muhim vazifadir.

Bugungi kunda kasb tanlash xar hil nuqtai nazardan qarash mumkin bo`lgan ko`p o`lchovli va ko`p darajali jarayondir, birinchidan jamiyat shakillanayotgan shaxs oldiga qo`ygan vazifalari ularni shaxs ma`lum vaqt davomida ketma ket hal qilishlari zarur ikkinchidan individ o`z qiziqishlari layoqatini qaror qabul qilish jarayoni sifatida namayon bo`ladi. Uchinchidan hayotning individual uslubini shakillantrish qaror qabul qilish jarayoni sifatida namoyon bo`ladi. Uchinchidan xayotning individual uslibini shakillantrish jarayoni sifatida, kasbiy faoliyat uning bir qismi sifatida namoyon bo`ladi bu uchta nuqtai nazar bir birini to`ldiradigan ishning har xil tomonlaridir. Yosh davrlar psixologiyasida kasb tanlash bir necha bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich – bolalar o`yinlari bo`lib unda bola o`ziga har xil kasbiy rollarni qabul qiladi va shu bilan bog`liq xulq atvorning aloxida elementlarni o`ynaydi.

Ikkinch bosqich – o`smirlik xayoli bo`lib o`smir orzularida o`zini, u yoki bu kasbning namoyondasi sifatida ko`radi.

Uchinch bosqich – ilk o`spirinlik davrini qamrab oladi, va uning dastlabki kasb tanlashidir har xil faoliyat turlari har xil faoliyat turlari o`smirning qiziqishlari tomonidan saralanadi va baxolanadi.(men tarixiy voqealarni yoqtraman tarixchi bo`laman) kiyin qobilyatlari nuqtai nazaridan kasb tanlashga harakat qilinadi. (men biologiyani yaxshi ko`raman biolog bo`lsamikan eng so`ngida kasb tanlash o`spirinda ikki hil ma`lumotni talab qiladi. Kasb dunyosi va har bir kasbga qo`yiladigan talablardan habardorlik o`z qobilyatlari va qiziqishlarni bilishi u ma`lumot ham bu ma`lumot ham o`spirinlarga etishmaydi.

Ilk o`sprinlarning amalga oshirishi va kasb tanlashi ijtimoiy sharoitlarga ayniqsa ota onaning ta`lim darajasi qanchalik yuqori bo`lsa farzantlarning oliy o`quv yurtida o`qishni davom ettrishi bu rejalarni amalga oshirish ehtimoli shunchalik yuqoridir. Tafakkur boshqa psixik jarayonlardan ajralgan xolda rivojlanishi mutloqa mumkin emas shuning uchun tafakkur rivojlanishi bilan birga o`quvchining nutq faoliyati ham o`sadi. Bu esa o`quvchida o`z fikrini to`g`ri aniq ifodalash malakasini tarkib topdiradi, va nutqning tuzilishini takomillashtiradi, va lug`at boyligini yanada oshiradi. Ilk o`spirin adabiy asarlarni o`qish va tushinish orqali mustaqil fikrlashga, muloxaza yuritishga va munozaraga o`rgana boradi, nutqning tuzilishini takomillashtiradi va

lugʻat boyligini yanada oshiradi. Oʻspirin adabiy asarlarni oʻqish tushinish orqali mustaqil fikrlashga muloxaza yuritish va munozaraga oʻrganib boradi.

XULOSA

Katta yoshdagi oʻquvchining aqlining tanqidiyligida ogʻmachilikka moyillik kuchli boʻladi ogʻmachilikning eng asosiy sabablardan biri- voqealikning mohiyatini ilmiy jihatdan toʻgʻri tushinaolmaslikdir. Aqlning va tafakkurning tanqidiyligini tarbiyalashda oʻqituvchi oʻquvchining oʻziga xos tipologik xususiyatiga aqliy kamolat darajasiga, bilimlar saviyasiga muloxaza doirasining kengligiga, nutq qobiliyatiga, shaxsiy nuqtai nazariga, oʻqishga nisbatan munosabatiga qiziqishining xususiyatiga va darajasiga, aqliy faoliyat operatsiyalarni qanchalik boʻlishiga mavjud oʻqish koʻnikmasi va malakalariga aloxida etibor berish lozim.

Aql tanqidiyligining rivojlanishi yuqori sinf oʻquvchilari moddiy dunyoni, atrof muxidni oʻrganishga, oʻquv materiallarni puxta oʻzlashtirishiga taʼlim jarayonida tashabuskorlikka faollik davit etadi. Ilk oʻspirinlik taffakurning sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi kengligi mustaqilligi, samaradorligi tezligi tashkil qiladi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, oʻspirin ongida tevarak atrofdagi voqealik boʻyicha muloxazalar, tushinchalar qanchalik joy olganligi nazarda tutiladi, tafakkurning chuqurligi deganda moddiy, moddiy dunyodagi narsa va xodisalarning asosiy qonunlari va xossalari, sifatlari oʻzora bogʻlanishi va munasabatlar oʻspirinning fikrlashida toʻliq aks ettrish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. V. M. Karimovanning psixologiya fanlar doktori, professor “oila psixologiyasi 2010
2. E. G. Gʻoziyevning “psixologiya”, Oʻqituvchi nashriyot – matbaa ijodiy uyi Toshkent 2013
3. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum. T. 1991
4. Asomova R. Z. Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi 2002. -137 b.
5. www.pedogog.uz
6. www.ziyonet.uz